

ODIL YOQUBOVNING “QAYDASAN MORIKO”

QISSASIDA PESAJ VA XARAKTER TALQINI

Maxamatkulova Shohida Abdusalim qizi

Samarqand davlat universiteti

filologiya fakulteti 4-kurs talabasi,

Ilmiy rahbar: A.N.Nasirov,

SamDU professori, filologiya fanlari doktori

Annatatsiya: Iste'dodli adib Odil Yoqubovning ijodi, nasriy asarlari o'zbek adabiyotining badiiy taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. "Qaydasan Moriko" qissasida inson va davrning murakkab muhiti badiiy talqin etilgan bo'lib, uning zamirida shaxs va muhit talqini etakchilik qilganligi haqida so'z yuritiladi. Inson kechinmalari, uning qalb istiroblari urush voqe;ligiga asoslangan bo'lsa-da, unda mag'lublar va g'oliblar mavjud emas. Qissada inson qismati, uning fojialari davr muhiti asosida badiiy talqin etilganligiga diqqat qilingan.

Kalit so'zlar: badiilik, ijodkorlik, mahorat, inson, muhit, xarakter, psixologizm, pesaj.

“ГДЕ МОРИКО” ОДИЛЯ ЯГУБОВА ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОТРЫВА И ПЕРСОНАЖА ИСТОРИИ

Аннотация: Творчество и прозаические произведения талантливого писателя Одила Якубова внесли большой вклад в художественное развитие узбекской литературы. В рассказе «Где ты Морико» художественно интерпретируется сложное окружение человека и времени, и сказано, что интерпретация человека и окружения является ведущим фактором. Хотя человеческие переживания и сердечные желания основаны на реалиях войны, в ней нет проигравших и победителей. В рассказе уделяется внимание

художественному осмыслению человеческих судеб и их трагедий на основе среды того времени.

Ключевые слова: артистизм, творчество, мастерство, личность, среда, характер, психология, прохождение.

“WHERE IS MORIKO” ODIL YAGUBOV INTERPRETATION OF THE BREAK AND THE CHARACTER OF THE STORY

Annotation: Creativity and prose works of the talented writer Odil Yakubov made a great contribution to the artistic development of Uzbek literature. The story "Where Are You Moriko" artistically interprets the complex environment of man and time, and it is said that the interpretation of man and environment is the leading factor. Although human experiences and heart desires are based on the realities of war, there are no losers and winners in it. The story focuses on the artistic understanding of human destinies and their tragedies based on the environment of that time.

Key words: artistry, creativity, skill, personality, environment, character, psychology, passage.

Uzoq yillik tarixga ega bo‘lgan ma’naviyatimiz, tariximiz o‘z sahifalaridan buyuk siymolarga o‘rin ajratgan. O‘tgan asr adabiyotining betakror so‘z san’atkori, o‘zbek nasrining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shtigan ijodkorlardan biri Odil Yoqubovdir. Adibning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda ma’lum darajada tadqiq qilindi va o‘rganilmoqda, ammo adibning betakror uslubi, sujet yaratish mahorati, obraz yaratishning o‘ziga xos tamoyillari kabi bir qator jihatlar deyarli o‘rganilmagan. Adib ijodining turli qirralari haqida bir qator adabiyotshunoslari o‘z qarashlarini, nazariy mulohazalarini qayd qilib o‘tgan. Adib ijodi haqidagi tahliliy qarashlarni Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo’shjonov, Umarali Normatov,

Norboy Xudoyberganov, Islomjon Yoqubov, Azimidin Nasirov, Zokir Rahimov kabi adabiyotshunoslarning qarashlarida kuzatish mumkin. Bu tadqiqotlarida yozuvchining o‘ziga xos mahorati, ijodkor shaxs sifatidagi faoliyati, tarix va hayotni aks ettirishdagi individual usluybi haqidahi mulohazalarni kuzatish mumkin. Odil Yoqubov ijodi haqida so‘z yuritgan Ozod Sharafiddinov yozadi: “Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” va “Diyonat” kabi romanlari o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘sildi. Bu asarlar ko‘pdan beri O‘zbekiston hududlarini oshib o‘tib, bir qator xorijiy mamlakatlarda ham ham o‘z kitobxonlarini topgan”ligini alohida ta’kidlasa [1,589-bet], adabiyotshunos Umarali Normatov esa: “Hayotning o‘zidan olgan zavqini, o‘z yurak dardini, hayojonlarini izhor etadi, o‘z qalamiga olgan hayot hodisalarini, personajlar qalbi va ruhiyatini murakkabligi, ziddiyatlari, chinakkam nafosati bilan kitobxonga etkaza oladi” [2, 104-bet], - degan qarashni juda asosli ilgari suradi. Shu bilan bir qatorda adabiyotshunos Azimidin nasirov esa quydgi qarashlarni ilgari suradi: “Milliy roman tizmida jiddiy izlanishlar olib brogan adib ijodida shaxs va jamiyat turfa xil qirralarini umumlashtirish, hayot haqiqatini badiiy aks ettirishhamda ruhiy tahlil teranligini yuzaga chiqarish” [3,4-bet] jarayonidagi badiiy mahoratiga diqqatini qaratib o‘tgan. Odil Yoqubov 1945-1950- yillar oralig‘ida harbiy xizmatda bo‘lib, hayotning eng qaynoq va murakkab jabhalari bilan tanishadi, o‘z boshidan o‘tkazadi. Shaxs sifatidagi bu jarayondagi kurashlari, inson sifatigi istiroblari keyinchalik asta-sekin badiiy asarlariga ko‘cha boshlagan. Har bir badiiy voqelikning o‘z tarixi borligini ham alohida qayd etish lozim. Adib asarlaridagi realistik tasvirning ustunligi, qahramonlar olamining badiiy talqini ham xuddi shu tushunchalar bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Olam va odamni kashf etish, uning badiiy siyemosini yaratish ana shu hayot tajribalarining mahsuli ekanligini ham alohida qayd etishni talab etadi. Ikkinci jahon urushi yillaridagi inson qismati, fojiali taqdirini ko‘rgan adib, murakkab taqdir egalarining badiiy siyemosini aks ettirishni barcha asarlarida yuksak darajada talqin etganligini kuztish mumkin. Yozuvchining bu fojalarning guvohi va ishtirokchisi sifatida, urush

voqealarini, mashaqqatlarini o‘zining bir qator asarlariga olib kirdiki, hayotiy haqiqatni badiiyatga singdirdi. Bu ham ijodkordan katta badiiy maoratni, hayotiy tajribani talab etardi. Ana shunday qismat egalarini, ularning fojialarini haqqoniy talqin etishga intilganligini keyingi asarlaridan biri “Qaydasan Moriko”da ham ko‘rish mumkin. Odil Yoqubovning “Qaydasan, Moriko” qissasida inson ruhiyatidagi ziddiyatlar haqqoniy yoritilgan. Asardagi voqealar silsilasi asosan, rus-yapon urushi zamirida shakllangan bo‘lib, inson qismatini, ziddiyatlarini muhitning biryoqlama tomonlarini teran anglagan holda obrazlarning xarakter va ruhiyatini asosli talqin etadi. Atoqli adabiyotshunos olim va adib Ozod Sharafiddinovning o‘zining mustaqillik yillarda yaratgan maqola, esse va adabiy suhbatlaridan tashkil topgan to‘plamida Odil yoqubovning “Qaydasan Moriko” qissasi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Qaydasan, Moriko?” qissasi, avvalo, o‘zbek adabiyoti uchun mavzu jihatidan yangi asar. Gap shundaki, sho‘ro zamonida har xil, sog‘lom mantiqdan xoli bo‘lgan va shu tufayli ayrim hollarda odamlarni qiy nab qo‘yadigan qonunlar, qoidalari, tartiblar ko‘p bo‘lardi. Shulardan biri - sovet kishisi bilan xorijiy odamlar o‘rtasida har xil ishqiy munosabatlarga mutlaqo yo‘l qo‘yilmas va ularning qonuniy nikohdan o‘tishlariga ham ijozat berilmasdi. Lekin inson yuragi g‘alati narsa u ba’zan qonun-qoidalarni tan olmaydi, ba’zan, esa hatto mantiqqa xilof ham borishi mumkin. Shunday hollarda - tuyg‘ular qonunlar bilan to‘qnashgan joylarda turli-tuman insoniy dramalar va hatto fojialar vujudga kelardi. Odil Yoqubovning qissasida shunga yaqin voqea hikoya qilinadi” [1, 591-bet]. Darhaqiqat, adibning bu qissasida yuqorida alohida qayd qilinganidek, insonni anglashga, uning qalb nidolarini aks ettirishga qilingan harakatlarda, talqinlarda faqat va faqat inson degan tushunchaning etakchilik qilishini ham unitmaslik kerak. Asar urush haqida bo‘lsada, talqinlarda mag‘lub yoki g‘oliblik haqida emas, aksincha shax fojiasi haqidagi tasvirlar etakchilik qiladi. Qissadagi obrazlar olmi ham, ularning irqi, millati ham turlichay bo‘lsa-da, eng xarakterli jihatli tili, dinidan qat’iy nazar inson va uning qalbi haqida fikr yuritiladi. Shuning uchun ham adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov qayd

qilganidek, insonni anglashga bo‘lgan ehtiyojning mahsuli sifatida bu asar maydonga kelgan bo‘lsa, ajab emas. Yozuvchining uzoq yillik ijodi shundan dalolat beradiki, har qanday asarida insonni, uning fazilatlarini, xarakter qirralarini talqin etishga harakat qilinganligini kuzatish mumkin. “Qaydasan Moriko?” qissasida yozuvchining o‘ziga xos uslubi va badiiy mahoratini tadqiq etish hamda sujet yaratish borasidagi mahoratiga diqqat qaratishnga harakat qilamiz. “Qaydasan Moriko” qissasida voqelik hikoyachi tilidan bayon qilingan bo‘lib, bu usul adib uchun o‘z g‘oyasi va fikrlarini ifoda etishning vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Aynan shu holat asar sujetining ham o‘ziga xosligini ta’minlagan. Badiiy asarda sujet markaziy ahamiyatga ega hisoblanadi. Sujet atamasiga ilmiy adabiyotlarda turli ta’riflar berilgan. Masalan, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da “Sujet (frans.-predmet, “asosga qo‘yilgan narsa”) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xattiharakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Umuman, sujetlilik badiiy adabiyotning xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, barcha turdagи badiiy asarlarda ham sujet mavjuddir”[4, 287-bet], deyiladi. Qayd qilinganidek sujet siz badiiy asarlarni tasavvur etish mumkin emas. Badiiyat mavjud joyda sujet ham o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham adibning bu qissasidagi sujet hayot voqeligini realistik talqin etish an’anasini yuzaga chiqarishga imkon bergen. Aslida, adib uzoq yillar o‘tib, yana urush mavzusiga qatishi, bu haqida maxsus asar yaratishi zamirida juda ham murakkab hayot voqeligi, hayotiy ziddiyatlar mujassamlashganligini ta’kidlash lozim. “Qaydasan Moriko” qissasidagi sujet liniyasi yangicha fikrlar mantig‘iga asoslanganligini ham qayd etish lozim, chunki urush mavzusiga singdirilgan inson qismati, uning fojalari, turli millat vakillari obrazi orqali yoritiladi. Bu esa adabiyotning, badiiylikning o‘ziga xos qonuniyatlarini juda teran namoyon qilganligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham, asarlar davomida shakllanib kelayotgan jahon adabiyoti va uning uzviy bir qismi bo‘lgan o‘zbek adabiyotidagi asarlarda ham inson qismati, uning dahshatli istiroblari talqini o‘z

aksini topib kelganligidan adlolat beradi. Odil Yoqubovning “Qaydasan Moriko” qissasida ham ana shunday badiiylik o‘z ifodasini topgan. Asar diologik nutqning konflikt shakli bilan boshlanar ekan, kitobxonni kim, nima uchun, nima sababli degan xayollar oxushiga olib ketadi. Diologik nutqda badiiy konflikt bilan bir qatorda badiiy tugun ham mujassamlashgan. Sujetning turfa xil ko‘rinishlari, uning tarkibiy qismlari mavjud, ammo muallif juda teran mulohazani diologik nutqqa singdirib yuboradi. Talqindagi konflikt ham, badiiy tugun ham qahramon xayollarini uzoq tarix sari etaklaydi, bu bejiz emas, albatta. Buning zamirida nafaqat o‘tmish tarixi, shu bilan bir qatorda insonni anglash, o‘z hayotining murakkab bir davriga xayolan sayohat qilish ham talqinlardan anglashilib turadi. Badiiy qahramonning o‘y-xayollari uni turli tarix sahifalarini shakllantirish bilan bir qatorda, murakkab va fojialardan tashqari xrotonot orqali, go‘zal bir makon voqeligi bilan ham tanishtirib o‘tadi. Yozuvchi asar sujetini hikoyachi nutqi orqali hashakllantirar ekan, kitobxonda davrning murakkab siyosiy “iqlim”larining badiiy inkosini teranroq anglash imkonini beradi: “Ming to‘qqiz yuz qirq beshinchi yilning iliq kuz oylari, Yapon ofitserlari uchun qurilgan shinam shaharcha – Port-Artur. Yam-yashil archazorlar orasiga yashiringan bir qavotli ozoda, ko‘rkam uychalar. Rus so‘zlarini allaqanday yoqimli bildirab gapiradigan yapon qizchasi Moriko! Xayolim yana uzoqlarga uchdi. Salkam ikki ming chaqirimga cho‘zilgan mashhur Gobi sahrosini yayov o‘tganda chekkan uqibatlarimiz, orta qolgan Gobi sahrosidan keyin yo‘limizni to‘sgan Xingan tog‘lari tog‘lari ham orqaga chekingan. Oldinda esa cheksiz-chegarasiz, yam-yashil vodiy yastanib yotibdi. Bu – shimoliy Manjuriyaning boshlanishi edi” [5, 170-bet]. Qissadan olingan taqlinlar nazar tashlar ekanmiz, go‘yo urush bo‘lmayotgandek, sayohat uchun kezib yurgandek tassurotni shakllantiradi. Chunki tabiat inson yovuzliklarini yo‘qotish uchun ham shunday go‘zallik ato qiligandek yoki uzoq yillik urushlardan bezgan qalbning, yillar o‘tib bunday mo‘jizalar oldida tiz cho‘kishi ham, tabiatning ne’matidir. Asar qahramonlarining kechinmalaridagi ruhiy istiroblar o‘rnini go‘zallik, yaxshilik

egallay boshlaydiki, bu esa insonni anglashga, borliqning mo‘jizakorligini his etishga da’vat etadi: “Biz kelgan qirlar ko‘rkam olmazor va nokzorlar bilan qoplangan. Kunduz kunlari bog‘larga sho‘ng‘ib ketamiz; sababi urush, bog‘lar qorovsiz qolgan... Qo‘ynlarimizni asal ta’mi kelgan nok va olmalarga to‘ldirib, pastdagi palatkalarimizga qaytamiz. Biz ham deyarlik qorovsiz qolganmiz” [5, 170-bet]. Yillar davomida zambaraklar, to‘plar dahshati bilan kurashgan insonning bunday tabiat qo‘yniga tushushib qolishi ham bejiz emas. Muallif bu orqali insonning qalb kechinmalaridagi mujassamlashgan go‘zallikni, uning yaxshilik, ezgulik uchun kurshga sarflashi mumnkinligini uqtirmoqda. Darhaqiqat, badiiylik qonuniyati insonning turfa xil olamini, mavjud makon va zamonda talqin etishga, bu asosida asar sujetini shakllantir, badiiy qahramonlar qiyofasi va ruhiy olamini taqlin etish a’anasini ham shakllantiradi. Qissaning sujeti jahon adabiyotining etakchi tamoyillarini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan ham alohida ajralib turadi. Badiiy asarning sujeti qaysi janrga mansubligiga qarab o‘ziga xos tarzda shakllantiriladi. Epik janrdagi asarlar sujet va kompozitsiyasi o‘ziga xos yaxlitligi bilan ham ajralib turadi. Sujet voqealari personajlar xarakterining ochilishi, shakllanishi uchun muhim asos vazifasini o‘taydi. Syujetning qay tarzda bo‘lishi muallif niyatiga, olam va odamni anglash jarayoniga uzviy bog‘liqdir. “Qaydasan Moriko” qissasi sujeti tayyor voqealar asosiga qurilgan bo‘lib, hayotiy voqelikning badiiy in’ikosi sifatida yuizaga chiqqan. Ko‘rinayabdiki, badiiy asar sujeti hayotni turfa xil ohanglarda badiiy aks ettirish bilan birgalikda, baddiiy qahramonlar galeriyasini, ularning o‘ziga xos xarakter qirralarini ham asosli shakllanishini ta’minlab boradi. Haqiqatdan ham, yozuvchining bu qissasida voqealar izchillik bilan rivojlanib boradi. Asardagi obrazlar esa mantiqiy tarzda ijtimoiy muhit ziddiyatlarini ochib beradi. Asar sujetidan o‘rin olgan obrazlar tizimida yapon generali, uning ikki qizi taqdiri bilan bogliq voqelar silsilasi o‘z ifodasini topgan. Yozuvchi Port-Artur shahrining go‘zalliklarini peyzaj tasviriga singdiradi. Shu bilan birlikda uning go‘zalliklari sobiq yapon generalining kichik, ammo ko‘rkam bog‘lari

tasviri orqali inson xarakterini, uning botiniy olamidagi qarama-qarshiliklarni talqin etishga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Umuman olganda, Odil Yoqubovning “Qaydasn Moriko” qissasisidagi o‘ziga xos talqinlar asar sujetida yana-da teranlashadi va bdiyy funksiyasini namoyon qiladi. Buning zamirida esa inson va borlqni terang anglash bilan birlikda, ijodkor badiiy mahorati ham mujassamlashganligini alohida qayd etmoqchimiz.

Adabiyotlar:

- 1.Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –Toshkent, “Sharq”, 2004. –B.640.
- 2.Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent, “Sharq”, 2007. – B. 352.
- 3.Nasirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. Monografiya. – Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2012. – B. 160.
- 4.Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. – Toshkent, ”Akademnashr” nashriyoti, 2010. –B.400.
- 5.Yoqubov O. Qaydasan Moriko. Qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar, maqolalar. – Toshkent, ”Sharq” nashriyoti, 2002. – B. 432.
- 6.Насиров А. Искусство и реальная жизнь. Монография. – Турция, Стамбул, – КЕСИТ, 2019. – С. 139.
- 7.Насиров А. Художественная интерпретация хронотопа в романах Одила Якубова // Академия: Международный междисциплинарный исследовательский журнал ISSN222-49-7137. Импакт-фактор SJIF 2020: 7.13. ул. 498-501.
- 8.Насиров А. Ард-конфликт в романе «Бунт и покорность» Укугбека Хамдама // Наука, исследования, разработки // 32. // 2. Берлин 30.08. 2020 - 31. 08. "Алмазный торговый тур". 2020. ISBN: 978-66401-65-5. 208-211 – ул.
- 9.Насиров А. Выражение духовных переживаний в искусстве // Международный журнал интегрированного образования // Том 3, выпуск XI, ноябрь 2020 г. Импакт-фактор 2020: 7.03. стр. 181-182.
- 10.Nasirov A. Poetics of Odil Yakubov's novels. Monograph. - Tashkent, "Fan" publishing house, 2012. - P. 160.